



**Surxondaryo viloyatining  
sanoat ishlab chiqarishi  
(2020- yil yanvar-sentabr)**



Активна

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 3 trln. 414,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 110,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (87,5 %) ni tashkil etdi.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish**



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 14,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 18,3 % ga pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning esa - 16,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 10,0 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 % ini tashkil etdi.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh - 1,7 martaga, tabiiy qum - 10,1 % ga hamda koʻmir qazib olish - 11,9 % ga oshgan boʻlsa, neft qazib olish - 3,2 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 23,5 % ga, yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar - 50,8 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<b>Ko'mir, ming t.</b>	173,3	193,9	20,6
<b>Neft, ming t.</b>	62,0	60,0	-2,0
<b>Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.</b>	22,7	17,4	-5,3
<b>Qum, ming t.</b>	36,6	40,3	3,7
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	52,7	90,5	37,8
<b>Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.</b>	2,8	1,4	-1,4



### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 989,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,5 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % (0,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 23,1 % (25,1 %) va quyi texnologiyalisi - 63,9 % (58,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,8 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,6 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 153,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 41,9 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 146,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 28,3 % (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,6 % (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 134,5 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,1 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 26,7 m.), 25,8 ming tonna yigirilgan ip (123,5 %), 102,1 ming tonna un (121,6 %), 128,6 ming tonna Portlandsement, 5,7 tonna tozalangan paxta yog'i (129,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	0,6	15,1	14,5
Tozalangan paxta yog'i, <i>ming t.</i>	4,4	5,7	1,3
Un, <i>ming t.</i>	83,9	102,1	18,2
Portlandsement, <i>ming t.</i>	-	128,6	128,6
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	8,4	1,8	-6,6
Sut, <i>t.</i>	340,6	258,5	-82,1
Sariyog', <i>t.</i>	1,0	3,3	2,3



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 214,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sano-at mahsulotlari hajmining (6,3 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 10,0 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2,27	0,004	-2,27
Issiqlik energiyasi, ming gkal	44,1	26,2	-17,9



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,9	2,7	0,7
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	4,9	7,1	2,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 43,2 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 57,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 39,5 % ga oshganligi, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 3,5 % ga kamayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 326,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ni tashkil etgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 50,0 % dan 53,9 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,0 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida - 4,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib - 22,0 % ni, shuningdek, Denov tumani - 17,5 % ni hamda Sho'rchi tumani - 15,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (97,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (138,2 %), Oltinsoy (113,3 %), Bandixon (111,1 %), Qiziriq (102,4 %), Sho'rchi (102,4 %), Muzrabot (99,9 %), Uzun (99,4 %), Sariosiyo (99,1 %), Angor (98,6 %) tumanlari va Termiz shahrida (99,7 %) qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1326,5</b>	<b>100,0</b>	<b>97,5</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>292,0</b>	<b>22,0</b>	<b>99,7</b>
tumanlar:			
<b>Angor</b>	<b>40,2</b>	<b>3,0</b>	<b>98,6</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1,7</b>	<b>0,1</b>	<b>111,1</b>
<b>Boysun</b>	<b>40,7</b>	<b>3,1</b>	<b>97,0</b>
<b>Denov</b>	<b>231,8</b>	<b>17,5</b>	<b>87,6</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>99,1</b>	<b>7,5</b>	<b>93,6</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>60,5</b>	<b>4,5</b>	<b>138,2</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>30,3</b>	<b>2,3</b>	<b>102,4</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>25,3</b>	<b>1,9</b>	<b>99,9</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>53,8</b>	<b>4,1</b>	<b>113,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>60,1</b>	<b>4,5</b>	<b>99,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>85,3</b>	<b>6,4</b>	<b>92,3</b>
<b>Uzun</b>	<b>44,7</b>	<b>3,4</b>	<b>99,4</b>
<b>Sherobod</b>	<b>61,9</b>	<b>4,7</b>	<b>83,6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>199,1</b>	<b>15,0</b>	<b>102,4</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 582,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,1 % ni tashkil etdi.




**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-sentabr mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3414,3</b>	<b>110,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>746,3</b>	<b>107,7</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>75,2</b>	<b>106,3</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1,7</b>	<b>105,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>55,2</b>	<b>104,3</b>
<b>Denov</b>	<b>462,3</b>	<b>105,2</b>
<b>Jarqoʻrgʻon</b>	<b>616,2</b>	<b>101,5</b>
<b>Qumqoʻrgʻon</b>	<b>254,5</b>	<b>159,6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>105,9</b>	<b>102,8</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>89,4</b>	<b>155,6</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>56,0</b>	<b>105,4</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>217,7</b>	<b>101,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>123,0</b>	<b>104,5</b>
<b>Uzun</b>	<b>89,1</b>	<b>115,4</b>
<b>Sherobod</b>	<b>240,3</b>	<b>106,6</b>
<b>Shoʻrchi</b>	<b>281,5</b>	<b>120,3</b>



**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 159,6 %), Muzrabot (155,6 %), Sho'rchi (120,3 %), Sherobod (106,6 %), Denov (105,2 %), Jarqo'rg'on (101,5 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (107,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 138,2 %), Oltinsoy (113,3 %), Bandixon (111,1 %), Qiziriq (102,4 %), Sho'rchi (102,4 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,9 % i) hamda Jarqo'rg'on (18,0 %), Denov (13,5 %), Sho'rchi (8,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,05 %), Boysun (1,6 %) hamda Oltinsoy (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (4 127,6 ming so'm), Jarqo'rg'on (2 808,3 ming so'm), Termiz (1 585,4 ming so'm) va Sho'rchi (1 289,3 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 289,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 500,9 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 1 614,9 ming so'mni, Termiz tumanida - 1 098,9 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 947,9 ming so'mni va Denov tumanida - 598,5 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1289,3</b>	<b>500,9</b>
<b>Termiz sh.</b>	4127,6	1614,9
tumanlar:		
<b>Angor</b>	565,3	301,8
<b>Bandixon</b>	23,0	22,7
<b>Boysun</b>	474,8	350,4
<b>Denov</b>	1193,5	598,5
<b>Jarqo'rg'on</b>	2808,3	451,5
<b>Qumqo'rg'on</b>	1080,1	257,0
<b>Qiziriq</b>	924,6	265,0
<b>Muzrabot</b>	627,7	177,7
<b>Oltinsoy</b>	315,0	302,6
<b>Sariosiyo</b>	1033,2	285,1
<b>Termiz</b>	1585,4	1098,9
<b>Uzun</b>	517,3	259,3
<b>Sherobod</b>	1233,7	317,8
<b>Sho'rchi</b>	1340,4	947,9



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 431,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon va Uzun tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Boysun tumanida (94,8 %), Termiz tumanida (91,3 %), Angor tumanida (89,6 %), hamda Qiziriq (82,2 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (24,5 %), Shoʻrchi (25,1 %), Jarqoʻrgʻon (28,1 %), Qumqoʻrgʻon (30,7 %), Muzrabot (37,1 %), Denov (42,0 %) hamda Termiz shahri (31,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3919 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 666 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 %) Termiz shahriga, 472 tasi (12,0 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1566 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 221 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,1 %) Denov tumanida, 169 tasi (10,8 %) Termiz shahrida, 134 tasi (8,6 %) Sho'rchi tumanida, 128 tasi (8,2 %) Qumqo'rg'on tumanida hamda 122 tasi (7,8 %) Oltinsoy tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (666 ta) hamda Denov (472 ta), Qumqo'rg'on (263 ta), Sho'rchi (258 ta) Termiz (254 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon (43 ta), Qiziriq (182 ta), Oltinsoy (186 ta), Angor (201 ta), Muzrabot (206 ta) tumanlari qayd etildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 22 ta loyiha bo'yicha 24,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va 144 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar  
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2019 yil yanvar-sentabr</b>	<b>2020 yil yanvar-sentabr</b>
Loyihalar soni, birlik	8	22
Korxonalar soni, birlik	8	22
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	17,2	24,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	0,3	0,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	195	144

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**

*Tel.: (76) 225-65-76*